

**SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MUSIQAGA OID
QARASHLARI MAVZUSINI MUSIQA
MADANIYATI DARSLARIDA O'QITISH
Tajiboyev Elmurod Mahmudjonovich
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7364341>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'rta maxsus ta'lif maktablarida musiqa madaniyati darslarining olib borish jarayoni, darsni qiziqarli olib borishda musiqa o'qituvchisi tomonidan qo'llaniladigan metodlar, dars jarayoni haqida bat afsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: dars, o'qituvchi, metod, talaba, savol, javob, musiqa, madaniyat, asar, tahlil, olim, maktab, dars jarayon, tahlil, ma'naviyat.

Umumiy o'rta ta'lif maktablarida "Musiqa madaniyati" darslari 1-sinfdan yettinchi sinfgacha har haftada bir marta o'tiladi. Respublikamizdagi umumiy o'rta ta'lif maktablaridagi musiqa darslari davlat ta'lif standartlarida belgilab qo'yilgan talablarga muvofiq tarzda tuzilgan dastur hamda aniq kalendar reja asosida tashkil etiladi. Dars o'quv tarbiya jarayonida tahsil maqsadlarini amalga oshirishda asosiy ta'lif shakli hisoblanadi. O'tkazilgan dars o'quvchilarni ham, o'qituvchilarni ham qanoatlantirish uchun darsni samarali tashkil etish asosiy omil bo'ladi. Ushbu maqola orqali yettinchi sinf uchinchi chorakdagi yigirmanchi darsini misol tariqasida keltiramiz.

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MUSIQAGA OID QARASHLARI

BIR SOATLIK DARS ISHLANMA

(7-sinf. III-chorak 20-dars)

Dars turi: yangi tushuncha va bilim beruvchi.

Dars jihizi: darslik, darsga doir ko'rgazma, DVD disklar, video proektor, kompyuter, musiqa cholg'u asbobi, fortepiano.

Dars usuli: aralash, interfaol, savol-javob.

Darsning vaqt taqsimoti:

Nº	Dars taqsimoti	Belgilangan vaqt
1	Tashkiliy qism	3
2	O'tilgan mavzuni so'rash	6
3	Yangi mavzu bayoni Qo'shimcha adabiyotdan foydalanish	11
4	Musiqa tinglash Darsni mustahkamlash	10
5	Kuylash	10
6	Uyga vazifa	2
7	Baholash	3

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism: salomlashish, davomatni aniqlash, darsga tayyorgarlikni tekshirish, kirish suhbati.

II. Uy vazifasini so'rash: (*7-sinf III-chorakdagi 18-dars mavzulari misolida*) “Testlar jangi” interfaol o'yin metodi. Bunda avvalgi dars mavzusini yuzasidan o'quvchilarga testlar tayyorlab kelish topshiriq etib berilib, tayyorlab kelingan test kartochkalari o'qituvchi tomonidan yig'ib olingach, test tayyorlagan o'quvchilar oxirigi parta qatoriga kelib turib oladilar. Fan o'qituvchisi tomonidan test ijodkorlariga mazkur testlarni tayyorlaganliklari uchun tashakkur tariqasida “1 ball” dan rag'bat balli beriladi. Testlar belgilangan vaqt taqsimoti bo'yicha navbatma-navbat 10-15 tachasi o'qib eshittiriladi. Har bir o'quvchidan faqatgina qo'l ko'targandan so'ng to'gri javob berish natijasida bir qadam oldinga yurish imkoniyati borligi, qo'l ko'tarmasdan aytilgan javob egasi tartibni buzganligi uchun garchan to'g'ri javob bergan bo'lsada bir qadam ortga qaytishiga sabab bo'lishi uqtiriladi. Bundan tashqari, “Testlar jangi” interfaol o'yin metodida o'rindiqlarda o'tirgan o'quvchilar ham ishtirok etayotgan o'quvchilar 3 soniya ichida javob berolmagan taqdirda javob berishliklari va to'g'ri javob uchun “1”balldan ball olishliklari, qo'l ko'tarmasdan yoki tartibsizlikka sabab bo'lgani tufayli bitta o'yin navbatini miqdorida o'yindan chetlanishliklari mumkinligi eslatib o'tiladi. [1]

III. Yangi mavzu bayoni.

Milliy va mumtoz musika eshitish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda shaxsiy va jamoaviy ijodning o'rni, ta'siri, poeziya va musiqaning bir-biri bilan tabiiy omuxtalashish jarayonlariga oid muammolarni dastlab har tomonlama ishlab chiqqan olimlar Abu Nasr Forobi (837-950) va Abu Ali ibn Sinolar (980-1037) edi. Shu jumladan, musiqa musiqa eshitish kunikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda og'zaki kasbiy ijod masalalari “Sharq musiqa nazariyasiga oid birmuncha jiddiy asarlar” [2] yaratgan Forobiyl ilmiy merosida

muhim o'rinni tutadi. Uning asarlari orasida "Kitob fi ixso al-iyqo" ("Ritm turkumlari haqida kitob"), "Kitob fin nakra muzofa ilal-iyko" ("Ritm bilan bog'langan ohanglar haqidagi kitob") alohida o'rinni tutadi. Musiqiy-ijodiy jarayon "Kitob ul-musiqa alkabir" ("Musiqa haqida katta kitob"), "Kalom fi-l musiqiy" ("Musiqa haqida o'ylar"), fundamental tadqiqot "Kitob fi ixso al-ulum va at-ta'rif" ("Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi") asarlarida bosh muammo sifatida o'rganilgan. Farobiyning «Musiqa to'g'risidagi katta asar» kitobida kuyni eshitish va tinglash orqali zavqlana bilish inson ruhining oliyjanob hislati ekanligini qayd etgan. Milliy va mumtoz musika eshitish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga doir qarashlarni Forobiy asarlarida uch turga ajratilganini uchratish mumkin. Uning fikricha, "bir xil musiqa insonga huzur-halovat baxsh etadi, ikkinchi xili esa ehtiroslarni qo'zg'ab, jo'shqin qiladi va nihoyat, uchinchi xil musiqa borki, o'yga toldiradi, fikrlashga, tafakkur qilishga majbur etadi" [3] deya ta'riflaydi. Bu jarayonda tinglash va eshitishda narsalarning suratlari go'yoki chizilayotgan yanglig' inson ongida gavdalanadi. Musiqiy idrokka ta'sir etuvchi transformatsion tendensiyalar sabab tinglaniyalayotgan kuyning biri ko'ngilga lazzat va rohat, boshqasi birinchi tur kuylar birga qo'shilib, ko'ngilni taxayyul bilan boyitadi, uchinchi xil kuylar hayvoniy lazzat yoki aziyat bilan bog'liq mazmundan tarkib topadi.

Forobiyning eng yaqin izdoshi Abu Ali ibn Sino bo'lgan. Yosh Sino uchun Forobiy asarlari o'zini qiziqtirgan fanlar, jumladan, musiqa fanini bilishda ham kalit vazifasini o'tagan edi

Abu Ali Ibn Sino (980–1037) qadimgi yunon faylasuflari hamda Forobiyning musiqa to'g'risidagi ta'limotlarini chuqur o'zlashtirgan holda, musiqani tinglash va eshitishda inson ma'naviyati bilan bog'liq jihatlarga ham katta e'tibor beradi. Olimning fikricha, "musiqa hayotbaxsh, olijanob axloqiy xususiyatlarni rivojlantiradi, u insonga xizmat qiladi, uning intellektual va axloqiy qiyofasini shakllantiradi". Umuman, musiqa inson tabiatini nechog'liq o'zgartirgani, insonning inson bilan o'zaro aloqasi va munosabatlari naqadar bog'liq ekanligi Ibn Sinoning "Kitob ash-shifo" risolasining musiqa bo'limida bayon etiladi.

III. Musiqa tinglash:

Dugoh maqomidan "Ko`ngil" Mahmaudjon Tojiboyev tomonidan bolalar uchun maqomi yo'llariga bastalangan asar.



KO'NGIL

“Ko‘ngil” kuyini tinglab, unga
mos usul tanlang.

M.M. J=100

IV. Mustahkamlash:

“MUSIQANI TINGLAB TOP” O’YINI

Bunda asosan o’qituvchi texnika vositalarida (DVD, komyuter, magnitofon, telefon) yoki biror bir cholg’u asboblarida (urma zarbli cholg’u asboblari bundan mustasno) quyi sinflardagi musiqa darslari orqali o’rganilgan asarlar “Dilxiroj”, “Ufor”, “Lazgi”, “Guluzorim”, “Janon bo’laman deb”, “Naylayin”, “Otmagay tong”, “Samarqand ushshog’i”, “Qo’qon ushshog’i”, “Toshkent ushshog’i”, “Sadirxon ushshog’i”, “Ey sabo”, “Ko’cha bog’i I-II”, “Abdurahmonbegi”, “Aylagach”, “Fig’on”, “Sensan sevarim”, “Munojot”, “Tanovar” va h/k.lar, bundan tashqari radio-televiedeniya orqali o’quvchilarga tanish bo’lgan (taniqli ustoz hofizlar tomonidan ijro etilgan) musiqa asarlari ijrosidan parcha tinglaydilar.

Bu asarlarni tinglash jarayonida o'quvchilar yangrayotgan asarlarni jaranglashidan tanib eslashlari, asarning nomi, bastakori, qo'shiq matnining davomiyligini bilishlari shart hisoblanadi.

Shunga ko'ra ushbu faoliyat quyidagicha olib boriladi.

Dastlab o'quvchilar o'z joylarida o'tirgan holda qizlar va o'g'il bolalar jamoalariga bo'linadilar.

Mavjud texnika vositasida yoki musiqiy cholg'u asbobi orqali musiqa darslarida o'r ganilgan asarlar bilan birlgilikda hozirgi kunda mamlakatimiz miqyosida radio-televide niya orqali ommalashgan qo'shiq-kuylar ijro etiladi. Jamoa ishtirokchilaridan birinchi bo'lib, qo'l ko'tarib to'g'ri javob bergan o'quvchilarga rag'bat ballari berib boriladi.[5]

Shunday qilib yetti ballni qo'lga kiritgan jamoa g'olib deb topiladi va g'olib jamoa olqishlanadi.

V. Buzruk maqomidan “Onajonim” Mahmaudjon Tojiboyev tomonidan bolalar uchun maqomi yo'llariga bastalangan asar.

ONAJONIM



Onajonim, mehribonim,
Menga har dam posbonim.
Bag'ringizda yayragayman,
Quyoshdan ham nurga konim.

M.M.=70

The musical score consists of five lines of music. The first line starts with a dotted half note followed by eighth notes. The second line begins with a quarter note. The third line starts with a dotted half note. The fourth line begins with a quarter note. The fifth line starts with a quarter note. Below the music, the lyrics are written in two columns:

O-na-jo - ni - m,
meh-ri- bo - ni - m, Men-ga har da - m po-s - bo - ni - m.
Bag' ri-ngi-z - da yay-ra-ga-y - man Bag' ri-ngi-z - da
yay-ra-ga-y ma - n Qu-yosh-dan ha - m nur-ga ko - ni - m.
O - na - jo - ni - m, meh - ri - bo - ni - m,



Quyidagi namunani dirijorlik qilib kuylang



“Xazon fasli” cholg‘u kuyini tinglang
hamda “Onajonim” qo‘srig‘ini kuylang,
so‘zlarini yodlang.



V. Uyga vazifa berish:

Mavzuni mustahkamlash. Mavzu yuzasidan testlar jamlanmasi tuzib kelish. Buzruk maqomidan “Onajonim” Mahmaudjon Tojiboyev tomonidan bolalar uchun maqomi yo’llariga bastalangan asar matnini yod olib kelish.

VI. Baholash:

Test va konspekt tayyorlab interfaol o‘yin metodlarida hamda darsda faol qatnashgan o‘quvchilar izohli baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qirg'izov I., Sultonov A "Maktab repertuari: musiqiy ta'limda innovatsion yondashuv" Farg'ona 2019 yil.31-bet
- 2.Хайруллаев М.М. Мировоззрение Фараби и его значение в истории философии. -Тошкент: Фан, 1967. -100 б.
3. Алаутдинова Н. «Куй ва қўшиқ сеҳри». Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008 йил.3-б.
4. Rizayeva M. "Maturity of a young singer" - T. "Chulpon" publication. 2003, - P.10
5. Qirg'izov I. A.Sultonov."Maktab repertuari: musiqiy ta'limda innovatsion yondashuv" uslubiy tavsiya. Farg'ona 2019 yil.48-bet